

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Ibragimova I.N

Nizomiy nomidagi O'zMPU Logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk o'zbek ma'rifatparvari, pedagog va yozuvchi Abdulla Avloniyning asarlari misolida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari tadqiq etiladi. Avloniyning «Turkiy Guliston yohud axloq», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» kabi asarlari hamda dramatik ijodi tahlil qilinib, undagi vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va yuksak ma'naviyatga da'vat etuvchi g'oyalar ochib beriladi. Maqolada Avloniyning tarbiya haqidagi qarashlari jadidchilik harakati kontekstida o'rganiladi va uning pedagogik merosi bugungi ta'lim-tarbiya amaliyoti uchun ahamiyati belgilanadi. Tadqiqot natijasida Avloniy asarlarida axloqiy tarbiya tizimli va izchil tarzda yoritilganligi, uning g'oyalari zamonaviy milliy tarbiya konsepsiyasi bilan hamohang ekanligi asoslab beriladi.*

Аннотация: *В данной статье исследуются вопросы духовно-нравственного воспитания на примере произведений выдающегося узбекского просветителя, педагога и писателя Абдуллы Авлони. Анализируются его труды «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ», «Первый учитель», «Второй учитель», а также драматическое творчество, в которых раскрываются идеи патриотизма, гуманизма, трудолюбия и стремления к высокой нравственности. В статье взгляды Авлони на воспитание рассматриваются в контексте джадидского движения, определяется значение его педагогического наследия для современной практики образования и воспитания. По результатам исследования обосновывается, что в произведениях Авлони нравственное воспитание освещается системно и последовательно, а его идеи созвучны современной концепции национального воспитания.*

Abstract: *This article examines issues of spiritual and moral education as reflected in the works of the outstanding Uzbek educator, pedagogue and writer Abdulla Avloniy. His major works — "Turkiy Guliston yohud Axloq" (Turkish Gulistan, or Ethics), "The First Teacher", "The Second Teacher" — as well as his dramatic writings are analysed to reveal ideas of patriotism, humanism, industriousness and the aspiration toward high moral character. Avloniy's views on upbringing are studied within the context of the Jadid movement, and the significance of his pedagogical legacy for contemporary educational practice is assessed. The study concludes that moral education in Avloniy's works is presented in a systematic and consistent manner, and that his ideas are in harmony with the modern concept of national upbringing in Uzbekistan.*

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: *O'zbekcha: Abdulla Avloniy, ma'naviy-axloqiy tarbiya, adidchilik, pedagogik meros, vatanparvarlik, insonparvarlik, axloq falsafasi, ma'rifatparvarlik, milliy tarbiya*

Русский: *Абдулла Авлони, духовно-нравственное воспитание, джадидизм, педагогическое наследие, патриотизм, гуманизм, просветительство, национальное воспитание*

English: *Abdulla Avloniy, spiritual and moral education, Jadidism, pedagogical heritage, patriotism, humanism, enlightenment, ethics philosophy, national upbringing.*

Bugungi globallashuv va ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan davrda yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Avloniyning pedagogik va ma'rifiy merosini o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik va ma'naviy barkamollik g'oyalari bugungi milliy tarbiya tizimi bilan uzviy bog'liqdir. Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, Avloniy asarlarida axloqiy tarbiya masalalari tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, ularni zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan tahlil qilish milliy ta'lim konsepsiyasini boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jadidchilik g'oyalari asosida shakllangan tarbiya qarashlarini qayta baholash ham ilmiy yangilik sifatida e'tirof etiladi. Abdulla Avloniy (1878–1934) — o'zbek ma'rifatparvari, pedagog, yozuvchi va jamoat arbobi bo'lib, jadidchilik harakatining yetuk namoyandalardan biridir. U Toshkentda tug'ilib, yangi usul maktablarini tashkil etish, ta'lim tizimini isloh qilish va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilishda faol ishtirok etgan. Avloniyning “Turkiy Guliston yohud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” kabi asarlari o'zbek pedagogik tafakkurining muhim manbalari hisoblanadi. Uning dramatik asarlari ham jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritish, xalqni ma'rifatga chorlovchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega.

XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari hayotida chuqur ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Mazkur davrda Rossiya mustamlakachiligi sharoitida milliy uyg'onish harakati sifatida yuzaga kelgan jadidchilik — arab tilidan «usuli jadid», ya'ni «yangi usul» iborasidan olingan — ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotni isloh qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Jadidlar faqat diniy bilim beradigan eski maktablarning o'rniga yangi usuldagi dunyoviy maktablar tashkil etishga, ona tilida darsliklar yaratishga, matbuot va teatrdan xalqni uyg'otish vositasi sifatida foydalanishga intildilar.

Abdulla Avloniy (1878–1934) ana shu harakatning Toshkent shahrida yetishib chiqqan eng yorqin namoyandalardan biri hisoblanadi. U nafaqat so'z san'atkori, balki amaliy pedagog va ma'rifatchi sifatida jadidchilik g'oyalarini bevosita hayotga tatbiq etdi. 1904 yilda o'z uyida yangi usuldagi maktab ochgan Avloniy, bolalarga ona tilida savodxonlik o'rgatish, ularga vatanparvarlik va axloqiy tushunchalarni singdirish yo'lida tinimsiz mehnat qildi.

Bu qadam Toshkentdagi ilk yangi usul maktablaridan biri bo'lib, o'z davrida jiddiy ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Avloniy jadidchilik harakatiga siyosiy shior darajasida emas, balki ma'naviy-axloqiy islohot sifatida yondashdi. Uning fikricha, millat faqat qurol yoki siyosat bilan emas, avvalo tarbiya va ilm-ma'rifat orqali uyg'onishi mumkin.

Shu bois u jadidlar ichida ta'lim-tarbiya masalasiga alohida urg'u bergan, tarbiyani millatning kelajagi uchun asosiy omil deb bilgan namoyandalardandir. Avloniyning pedagogik qarashlar tizimi uchta asosiy ustun — ilm, axloq va mehnat — ustiga qurilgan. U tarbiyani insonni shakllantirishning eng asosiy vositasi deb hisoblab, «Tarbiya biz

uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidur» degan mashhur iborasida bu g'oyani lo'nda ifodalagan. Ushbu ta'rif faqat so'z san'ati namunasi emas, balki Avloniyning tarbiyaga nechog'li jiddiy va chuqur yondashganini ko'rsatuvchi epistemologik pozitsiyadir. Avloniy ta'lim-tarbiyani ikki jihatda ko'rdi: birinchisi — aqliy tarbiya, ya'ni ilm-fan orqali inson ongini rivojlantirish; ikkinchisi — axloqiy tarbiya, ya'ni inson qalbini ezgu fazilatlar bilan bezash. Bu ikki yo'nalish uning asarlarida bir-birini to'ldiruvchi, ajralmas jarayon sifatida tasvirlanadi. Uningcha, faqat bilimli, ammo axloqsiz odam jamiyatga zarar keltirishi, faqat axloqli, ammo bilimdan mahrum odam esa zamondan orqada qolishi muqarrar. Pedagogik qarashlar tizimida Avloniy o'qituvchi shaxsiga alohida e'tibor qaratadi. «Birinchii muallim» va «Ikkinchi muallim» asarlarida muallim nafaqat bilim uzatuvchi, balki axloqiy namuna, ruhiy ustoz sifatida tasvirlanadi. Bu yondashuv G'arb pedagogikasidagi «tarbiyachi-murabbiy» an'anasi bilan hamohang bo'lsa-da, Avloniy uni sharqona falsafa va milliy qadriyatlar ruhida boyitgan. Jadidchilik harakati vakillari — Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar — har biri o'ziga xos yo'nalishda faoliyat olib bordi. Avloniy ushbu harakatda ta'lim-tarbiyaning badiiy-estetik va axloqiy-tarbiyaviy jihatlarini birinchi o'ringa qo'ygan pedagog-yozuvchi sifatida alohida o'rinni egallaydi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u nazariy pedagogika bilan amaliy ijodni uyg'unlashtirdi: bir tomondan darsliklar va axloq risolalari yozdi, boshqa tomondan teatr asarlari, she'rlar va maqolalar orqali g'oyalarini keng xalq ommasida tarqatdi. «Shuhrat» (1907) va «Osiyo» (1908) gazetalari hamda «Turon» teatr truppassi (1913) orqali u jadidchilik g'oyalarini madaniy hayotning turli sohalariga olib kirdi.

Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim bir-biri bilan uzviy bog'liq bir necha yo'nalishni qamrab oladi: vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, din va axloq uyg'unligi hamda shaxsiy fazilat — kamtarlik, halollik va sabr-toqat. Ushbu bo'limda mazkur yo'nalishlarning har biri Avloniyning asarlari misolida alohida tahlil qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Avloniy ushbu axloqiy tushunchalarni bir-biridan ajratib talqin etmaydi. Aksincha, u ularni shaxs kamolotining turli qirralari sifatida ko'rib, ular o'rtasidagi ichki aloqani doimo ta'kidlaydi. Masalan, uningcha, haqiqiy vatanparvar insonparvar ham bo'lishi shart; halol mehnat qiluvchi kishi kamtarlikni ham egallagan bo'ladi. Bu yaxlit axloqiy dunyoqarash Avloniy pedagogikasining asosiy xususiyatlaridan biridir. Vatanparvarlik Avloniy asarlarida eng keng yoritilgan axloqiy tushunchalardan biridir. Ammo Avloniy vatanparvarlikni oddiy «tuproqqa muhabbat» darajasida emas, balki kengroq — millat, ona tili, madaniyat va kelajak avlodlarga mas'uliyat duyg'usi sifatida talqin etadi. «Turkiy Guliston»da u vatanparvarlikni shaxsning eng oliy burchi deb atab, «Vatanni sevmoq iymondandir» hadisiga tayanadi va bu diniy asosni madaniy-milliy mazmun bilan boyitadi. Avloniy vatanparvarlik tarbiyasini til tarbiyasi bilan uzviy bog'ladi. Ona tilida darslik yaratishi, «Shuhrat» va «Osiyo» gazetalari on a tilida nashr

etishi — bular barchasi tilni milliy o'zlikni saqlovchi asosiy vosita sifatida ko'rganidan dalolat beradi. Uningcha, ona tilini bilmagan, unda o'qimagan va yozmagan

kishi o'z millatini sevishga qodir emas, chunki til — millatning ruhi. Dramatik asarlarida ham vatanparvarlik mavzusi markaziy o'rinni egallaydi. «Biz va siz» pyesasida qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat mohiyatan eski va yangi avlod o'rtasidagi — millat kelajagiga loqaydlik va unga mas'uliyat bilan yondashish o'rtasidagi — kurash sifatida talqin etiladi. Bu orqali Avloniy vatanparvarlikni passiv his sifatida emas, faol ijtimoiy pozitsiya sifatida ko'rsatadi. Avloniy insonparvarlikni milliy chegaradan yuqoriroq — umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'taradi. «Turkiy Guliston»da u insonparvarlikni uch darajada ko'radi: shaxsiy mehr (oila va do'stlarga), ijtimoiy mehr (millatdoshlarga) va umuminsoniy mehr (barcha kishilarga). Bu uch darajani birlashtiradigan asosiy tushuncha — «muruvvat», ya'ni boshqalarning dardini o'z dardi sifatida his qilish qobiliyatidir. Avloniy insonparvarlikni passiv his sifatida emas, faol harakat sifatida ko'radi. Uningcha, mehr-oqibatni his qilish kifoya emas — uni amalda ko'rsatish, zaif va muhtojlarga yordam berish, zulm va adolatsizlikka qarshi turishga tayyor bo'lish lozim. Bu yondashuv uning dramaturgiyasida yaqqol ko'rinadi: asarlarida ijobiy qahramonlar boshqalarga qo'l cho'zavchi, ijtimoiy adolat uchun kurashuvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Mehr-oqibat tarbiyasida Avloniy ona va oilaga alohida e'tibor qaratadi. «Birinchi muallim» asarida oila — bolaning dastlabki axloq maktabi sifatida, ona esa — eng birinchi va eng muhim tarbiyachi sifatida ulug'lanadi. Bu nuqtai nazardan Avloniy insonparvarlik tarbiyasini uydan, onalik va otalik mas'uliyatidan boshlashni tavsiya etadi. Mehnat tarbiyasi Avloniy asarlarida axloqiy kamolotning ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Avloniy mehnatni faqat moddiy ehtiyojni qondirish vositasi sifatida emas, balki inson shaxsini shakllantiradigan, uni erkinlashtiruvchi va unga qadr-qimmat bag'ishlovchi ma'naviy jarayon sifatida ko'radi. «Turkiy Guliston»da dangasa va faol inson qiyosi orqali mehnat sharafsizlik emas, balki inson ulug'ligining mezoni ekanligi ta'kidlanadi. Avloniy mehnatning ikki jihatini alohida ko'rsatadi: jismoniy mehnat va aqliy ijod. U bu ikki jihatni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaydi. Aksincha, to'laqonli shaxs — qo'li bilan ham, aql-zakovati bilan ham mehnat qiluvchi insondir. Shu bois u o'z asarlarida hunarmand va dehqon mehnatini ulug'lash bilan birga, ilm-fan va adabiyot sohasidagi ijodkorlikni ham teng darajada sharaflil faoliyat sifatida ko'rsatadi. «Advokatlik osonmi?» dramasi mehnat va mas'uliyat mavzusini yuridik kasbning axloqiy jihatlari orqali yoritadi. Kasb tanlash — bu Avloniy uchun shunchaki moddiy masala emas, balki axloqiy qaror: tanlagan kasbingda halol, fidokor va mas'uliyatli bo'lish — mehnat axloqining asosiy talabi sifatida ko'rsatiladi.

«Turkiy Guliston yohud axloq» (1913) — Abdulla Avloniyning eng yirik va eng muhim pedagogik asari bo'lib, u o'zbek adabiyoti va pedagogikasi tarixida alohida o'rin egallaydi. Asar nomi Sa'diy Sheroziyning forscha «Guliston» asariga ishora qiladi — bu ataylab tanlangan nom: Avloniy o'zining asarini sharq axloq risolalari an'anasiga bog'lagan holda, uni yangi pedagogik mazmun bilan boyitgan. Asar dastlab yangi usul maktablarida darslik sifatida ishlatish maqsadida yaratilgan. Shu bois uning tili sodda, ifodasi aniq, misollari hayotiy. Avloniy ushbu asarni yozishda ikki vazifani bir vaqtda hal qildi: bolalarga ona tilida savodxonlik o'rgatish va ularda axloqiy tushunchalarni mustahkamlash. Bu ikki vazifaning bir asarda uyg'unlashtirilishi «Turkiy Guliston»ni o'z

davrining noyob pedagogik hodisasiga aylantirdi. Asar mavzular bo'yicha bo'limlarga ajratilgan bo'lib, har bir bo'lim muayyan axloqiy tushunchani — rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilm-fanga muhabbat, kamtarlik va boshqalarni — bolaga tushunarli til va misollar orqali ochib beradi. Matnda nasr va she'r uzviy ravishda almashib keladi, bu esa asarning ta'sirchanligini oshirgan. «Turkiy Guliston» nashr etilgan 1913-yilda o'zbek pedagogik adabiyoti uchun haqiqiy yangilik bo'ldi. Bu davrda maktab ta'limi asosan arab va fors tillarida olib borilardi; ona tilida yozilgan, axloq tarbiyasiga bag'ishlangan darslik esa deyarli mavjud emasdi. Avloniyning asari shu jihatdan ikki muhim bo'shliqni to'ldirdi: til jihatidan milliy, mazmun jihatidan zamonaviy pedagogik asarni yaratdi. Asar keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Sovet davrida u sinfiy-mafkuraviy nuqtai nazardan qayta baholansa-da, asardagi insonparvarlik, bilimga muhabbat va mehnat tarbiyasi kabi g'oyalar umuminsoniy qadriyat sifatida saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida esa «Turkiy Guliston» o'zbek milliy pedagogikasining asosiy manbalari qatoriga kiritildi va Avloniy milliy tarbiya nazariyasining asoschisi sifatida yanada yuqoriroq baholana boshladi. Zamonaviy pedagogika fani nuqtai nazaridan «Turkiy Guliston»dagi axloq tarbiyasi tizimi bir necha jihatdan diqqatga sazovordir: u shaxsni markazga qo'yadi, jamoaviy axloqiy mas'uliyatni alohida ta'kidlaydi va tarbiyani ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida ko'radi. Bu yondashuv bugungi dunyo pedagogikasidagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va fuqarolik tarbiyasi konsepsiyalari bilan hamohang ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot Abdulla Avloniy asarlarini ma'naviy-axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan tahlil qilish asosida bir qator muhim ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, Avloniyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari tarqoq, tasodifiy g'oyalar majmuasi emas, balki ichki mantiq va izchillikka ega yaxlit pedagogik tizimdir. Bu tizim uchta asosiy ustun — ilm, axloq va mehnat — ustiga qurilgan bo'lib, ularning har biri qolgan ikki ustunni mustahkamlaydi va ularsiz to'liq bo'lmaydi. Tadqiqot davomida aniqlandi-ki, Avloniy ma'naviy-axloqiy tarbiyaning beshta asosiy yo'nalishini — vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, din va axloq uyg'unligi hamda shaxsiy fazilatlar tarbiyasini — bir-biridan ajratib emas, balki yaxlit shaxs kamoloti jarayonining turli qirralari sifatida ko'radi. Ushbu integrativ yondashuv Avloniy pedagogikasini o'z davrining boshqa tarbiyaviy nazariyalaridan tubdan farqlantiradi va unga zamonaviy xarakter bag'ishlaydi. Abdulla Avloniy — faqat o'z davrining emas, barcha davrlarning pedagogi. Uning asarlarida yoritilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi XX asr boshining muayyan ijtimoiy sharoitida tug'ilgan bo'lsa-da, unda ifoda etilgan qadriyatlar — insonparvarlik, halollik, bilimga muhabbat, vatanga sadoqat, mehnat sharafligi — zamon va makonga bog'liq emas. Bu qadriyatlar bugungi globallashuv, texnologik o'zgarishlar va ma'naviy izlanishlar davrida ham o'zining tarbiyaviy kuchini to'liq saqlab qolmoqda. Shu ma'noda, Avloniy merosini o'rganish — bu faqat o'tmishga nazar emas, balki kelajak tarbiyasi uchun poydevor qidirish hamdir. Uning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot» degan hasratlari bugun ham o'z dolzarbligini saqlamoqda va O'zbekistonda yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxsni tarbiyalash borasidagi har qanday sa'y-harakatga ruhiy asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy. Birinchi muallim. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Abdulla Avloniy. Ikkinchi muallim. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. — Toshkent: O'zbekiston, 1992.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
5. Begali Qosimov. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik uchun kurash. — Toshkent: Universitet, 2004.
6. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2008.
7. Sirojiddin Sayyid. Ma'naviyat asoslari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Milliy tarbiya konsepsiyasi. — Toshkent, 2019.